



“MUHAMMAD YUSUF - MILLIY RUH KUYCHISI”

**Aralova Farangiz Abdulla qizi**  
*Samarqand davlat universiteti 103-guruh  
talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Muhammad Yusufning hayoti va ijodi, shoirning betakror she'riyatining o'ziga xos olami haqida so'z boradi. Shoir haqida o'z zamondoshlari xotira kitoblarida fikrlar bildirib o'tishgan. Asosan ushbu maqolada shoir Muhammad Yusufning she'rlaridagi o'ziga xos jimjimadorlik, vatanparlik, muhabbat, oilaga bo'lgan hurmat- e'tibor tuyg'ulari haqida juda chuqur mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** she'riyat, lirik qahramon, she'riy parcha, sohir qush, she'riy mahorat, hayotiy tajriba, insoniy kamolot.

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprel Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida oddiy mehnatkash oilada tavallud topgan. Muhammad Yusuf bolaligidan adabiyotga qiziqqan. 1978-yilda Rus tili va adabiyoti instituti (hozirgi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti) ni tamomlagan. U rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi. Shuning uchun ham uning she'riyati butun ma'naviyatga to'la, muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz, taqdirimiz haqida kuylaydimi hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she'rlari oddiy, ravon, soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohang ko'rinadi. Shoir Yusuf ota va Enaxon ayalarning ikki o'g'il, uch qiz farzandlari ichida erka farzand bo'lib ulg'aygan. Noyob iste'dod sohibi bo'lmish Muhammad Yusuf bolalik chog'larida sho'x yigit bo'lib, ko'p narsalarga qiziqqan, yuragida muhabbat, tomirlarida oqayotgan qonning jo'shqinligi uning she'rlarida yaqqol namoyon bo'ladi. M.Yusufning qalbida mehrni buvisi Tursunxon ena uyg'otgan edi. M.Yusuf 1983-yili Nazira as-Salom bilan oila qurgan. Nazira as-Salom ham she'rlar yozib turgan. Muhammad Yusuf o'z she'rlariga rafiqasining she'rlarini qo'shib nashr ettirgan ekanlar. Muhammad Yusuf vafotidan keyin Nazira opa shoir bilan tasodifan uchrashib qolgani haqida aytib o'tgan edi. Muhammad Yusufdan uch qiz Ma'suda, Nozima, Madina qoladi. Ma'suda 27 yoshida vafot etadi. Keyinchalik, shoirning kichik qizi Madina otasining ishlarini davom ettiradi. Madinaning she'riy to'plamlari nashriyotlarda chiqa boshlaydi. Nazira opa shoirning o'rtancha qizi Nozima og'ir bosiq, ko'ngilchan



bo'lgani va kichik qizi Madina esa sho'x, qiziquvchan, qat'iyatli, xarakteri tez bo'lganini va otasi ularga xarakteriga moslab muomalada bo'lganini o'z intervyularidan birida aytib o'tgan. Insonning orzulari, kelajakda kim bo'lishi, hayotda munosib o'rnini egallashi, odatda u ulg'aygan muhitga bog'liq bo'ladi. Yaxshi ota esa farzandining ko'zlagan manziliga qoqilmay yetishida vaqt va imkoniyat imtiyozi. M. Yusuf o'z qizlari uchun hattoki, jonini berishga tayyor bo'lgan mehribon inson edi. Shoir qizlarini bolaligidan hayotga tarbiyalab borgan. Sport bilan shug'ullantirgan va oilaviy o'zaro bo'ladigan suhbatlarda ham qizlarini fikrlarini ham so'ragan. Muhammad Yusuf qizi Madinaning xatti-harakatlari, fikrlashi o'ziga o'xshagani sababli qizini doim o'zi bilan olib yurgan, xizmat safarlarga ham birga olib ketganliklarini qizi Madina yodga oladi. Shoir Madina haqida quyidagi she'rni yozgan edi:

*“ Madina, Madina, nega yig'laysan,  
Mening asal qizim, qachon uxlaysan?  
Isitmang tushmadi, topolmadim dori,  
Tinmadi chaqaloq joningning zori,  
Yarashmas yashamoq nokasga yolvorib,  
Chida, yorug' tongni kutamiz, qizim,  
Biz hali hammadan o'tamiz qizim...”*

Ushbu she'rda ko'rinib turganidek, shoirning qizi Madina yosh chaqaloq bo'lgan bir davrda yozilgan. Chaqaloqning isitmasi hech tushmayapti. Chinqirib-chinqirib yig'lamoqda. Otaning o'y-xayollari faqatgina bolasining qachon sog'ayishida. Haqiqatan ham ota-ona har doim farzandlarini o'ylaydi. Hayotda bolam deb yashaydi. Ularning asosiy maqsadi ham shu. Shoir chida, yorug' tongni kutamiz deya o'z xayolida umid beradi. Shoir ushbu she'rda Madina yig'loqi tug'ilgani, she'r yozolmagani, yozsa ham topshira olmagan haqida aytib o'tadi. Umuman olganda, shoirni bir qancha ijodkorlar o'z asarlarida, she'rlarida, yodga olishadi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shoir Muhammad Yusuf bilan bo'lgan xotiralarida shunday fikrlarni bayon qilgan: " Muhammad Yusuf pokiza inson edi. U odamlarni o'ylatgan, kuldigan, yig'latgan, topgan - tutganini ustidan sochgan saxiylik timsoli edi. Muhammad hammani o'ziga do'st deb bilardi. Hech kimni begona qilmasdi. Qo'lida borini do'stlariga tarqatmaguncha, cho'ntagi bo'shab qolmaguncha ko'ngli to'lmasdi. Muhammad Yusuf tez og'izga tushdi. Endi shoirning o'zi yo'q. Ammo Muhammad Yusuf deb atalmish she'riyat bor. Bu she'riyat aslo zavol bilmaydi"- deya eslaydi O'zbekiston xalq yozuvchisi. Muhammad Yusuf - o'zining



she'riyati bilan o'zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan, xalqning sevimli shoirlaridan biri. Muhammad Yusuf she'riyati insonni har tomonlama o'ylashga, his-tuyg'ularni chuqur anglashga, yuksak ma'naviyatga yetishishga chaqiradi. Shoirning asarlari, asosan, ona yurt sevgisi, hayotdagi muammolar va insonning ichki dunyosini aks ettiradi. U nafaqat she'riyatda, balki nasriy asarlarda ham o'ziga xos uslubini yaratdi. Hayotning abadiy qonuniyatlarini his qilgan odam uchun behuda lahzaning o'zi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Zero, inson necha yil umr ko'rishidan qat'i nazar, bu umrning asosini mana shu lahzalar tashkil qiladi. Buyuk qahramonliklar ham, isnodli sharmandaliklar ham ayni lahzalar oralig'ida ro'y beradi. O'zini, o'zligini unutgan odam bir lahzada yo'l qo'ygan xatosi, qo'rqqoligi, shijoatsizligi tufayli umrbod yuzi qora bo'lib qolishi hech gap emas. Yoki aksincha, Amir Temurdek, Jaloliddin Manguberdidek, Bobur Mirzodek bobolarimizning shon-shavkati aynan bir lahzada qabul qilgan qat'iy qarorlari, biror lahza unutmagani - yurtga sadoqatlari tufayli abadiyatga daxldor bo'ladi. Muhammad Yusufning she'rlari oddiy va tushunarli bo'lib, ularni har bir o'quvchi o'ziga yaqin his qiladi. Iste'dod bu mo'jiza. Har kimga ham berilavermaydi. Shuningdek, Erkin Vohidov shoir haqida yozadi: "Bu ozg'ingina istarasi issiq, qorachagina yigitcha bir ko'rishdayoq meni o'ziga tortgan edi. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlamoqchimanki, inson umrining oxirigacha ilm o'rganadi, hayot darsini o'rganadi. Ammo she'r yozish ilmi shunday ilmki, uni o'rganib bo'lmaydi. U tug'ma bo'lishi kerak. Muhammadjon tug'ma iste'dod sohibi edi. U bu iste'dodni rivojlantiradi, o'ziga talabchan bo'ldi" - deya shoirni xotirlab o'tganlar.

Muhammad Yusuf she'rlari g'am-tasavvurlar, zamon va hayotning o'zgaruvchanliklari haqida chuqur mulohazalar mavjud. Shoir Muhammad Yusuf ilhom degan tushunchani tan olmagan. "Shoir nimadandir ko'ngli to'lsa, nimadandir ozorlansa she'r yozadi. She'r tuproqqa aralashib yotadi. Uni topib, artib-surtib uyga olib kelasan" - degan edi bir intervyusida. U insonning irodasini, orzu-umidlarini, kechikkan sevgisini hamda vatanparvarligini yuksak she'riy mahorat bilan ifodalagan. Shoir o'zining hayotiy tajribalarini, ko'rganlarini she'rlarida jonli va samimiy tarzda tasvirlaydi, shuningdek, yoshlarni ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashga alohida e'tibor beradi. Chinakam shoirning qalbida shoir qush doimo sayrab turadi, degan gapni ko'p bora eshitgandik. O'sha qush aynan Muhammad yuragiga oshyon qurganiga men astoydil ishonganman. Uning ko'zlari ham, chehrasi ham hamisha latif bir honish qilganday edi" - deya O'zbekiston qahramoni A. Oripov shoirni xotirlaydi. Muhammad Yusuf insonlarni ilm olishga chorlaydi. Muhammad Yusuf bolaligidan juda sho'x va ilmga chanqoq bo'lgan. O'qishda o'z do'stlaridan bir qadamda oldinda yurishga harakat qilgan. Shoir 6- sinfda tahsil olib kelayotgan bir



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



paytda " Ming bir kecha" ( arab xalq ertaklari) kitobini o'qib yod olgan ekanlar.Bizga ma'lumki,g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy bobomiz ham bolaligida Farididdin Attorning " Mantiq ut- tayr" asarini o'qib yod olgan edi.Xalqimizda bir maqol bor: " Bola boshidan ma'lum" - deya uqtirishgan.Muhammad Yusuf yoshlarni,talabalarni ilm olishga chorlaydi va ko'pgina she'rilarida bilim olishga katta e'tiborini qaratadi.Masalan, " Talabalar madhiyasi" she'ridan olingan quyidagi parchani ko'rib o'tamiz:

*" Ilm istang,izingizdan ibrat yog'sin,  
Ixlosingiz,shahdingizdan shiddat yog'sin.  
Ortingizdan mag'rur-mag'rur millat yog'sin.  
Mulki Turon najotlari, ilm istang!..*

Ushbu she'riy parchada shoir,asosan, e'tiborini ilm olishga, juda katta kuch - g'ayrat, shijoat bilan yanada oldinga intilishi kerakligiga qaratgan.Bu she'r hozir ham katta ahamiyatga ega.Hozirgi kunda yoshlar, balki yosh bolalar ham ijtimoiy tarmoqlardagi turli xil o'yinlarni o'ynashmoqda.Ayniqsa,ba'zi ota- onalar farzandlariga kichik bo'lishiga qaramay, tinchgina o'ynasin deya telefonlarini berib qo'yishmoqda.Bu esa eng katta xato.Insonlarni juda kichik yoshidan tarbiyalab borish kerak.Ota-onalar farzandlariga ertak kitoblar,hikoyalar o'qib berishi lozim.Tez aytishlar yodlatishi lozim.To'g'ri yosh bolalar tushunmasliklari mumkin.Ammo keyinchalik bu ertaklarni ta'siri,albatta,katta bo'ladi.Insonni xalq og'zaki ijodi asarlari kamolotga yetaklaydi.Dostonlar,ertaklar, rivoyatlar,qissalar,maqollar, xalq qo'shiqlari orqali bolalarning salohiyati yanada yuksaladi.Kelajakda o'z xalqiga yetuk mutaxassis bo'lishiga bir turtki bo'lsa ne ajab!

O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov shoir bilan bog'liq shunday fikrlarni yozgan edi: "Muhammad Yusuf baxtli,omadli shoir.Unga mustaqil yurtini,ozod xalqini ko'rish nasib etdi.Yurtining eng ulug' bayramlarida uning qo'shiqlari baralla yangraydigan bo'ldi.Muhammad Yusuf degan shoir she'riyatga qanday kirib kelganini adabiyotimiz sezmay qoldi.Ammo u tezda,hammani hayron qoldirib,og'izga tushib ketdi.Uning ijodi haqida gap ketganda,ko'pincha qo'shiqlarini tilga oladilar.U qo'shiq yozgan ham,o'zini qo'shiqchi shoir hisoblagan ham emas.Uning yozganlari nihoyatda dolzarb mavzuda,o'ta jiddiy, ammo xalq diliga juda yaqin va ravon tilda yozilgan.Bu qo'shiqlar qo'shiqchilikni ham baland pog'onalarga olib chiqdi.Qancha-qancha hofizlarni elga tanitdi.Shu o'rinda hurmatli yurtboshimizning bu kamsuqum shoirga shaxsan e'tiborini aytmay bo'lmaydi.Shoir M.Yusufga Prezidentimizning mehrlari bobomiz Ulug'bek haqidagi qo'shiqni



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



eshitgan paytlaridayoq tushgan edi."Xalq shoiri" unvonini ham mamnuniyat bilan unga o'zlari topshirgan edilar"- deya o'z fikrlarini bildirib o'tgan edilar.Tush orzular ro'yobi,armonlar muhri bosilgan go'zallik, olamning tortishish kuchiga ham bo'ysunmaydigan hurlik va ilohiy behududlik o'lkasidir.Ana shu fazilatlar bilan birga tush erkin mantiqsizlik o'lkasi hamdir.Lekin, faqatgina vatanni tush ko'rib bo'lmaydi.Muhammad Yusuf vatanimiz haqida ham she'rlar yozgan.Shulardan " Vatanim" she'ridan bir parcha keltiramiz:

*Men dunyoni nima qildim,  
O'zing yorug' jahonim,  
O'zim xoqon, o'zim sulton,  
Sen taxti Sulaymonim,  
Yolg'izim, yagonam deymi,  
Toppingan koshonam deymi,  
O'zing meni ulug'lardan ulug'imsan Vatanim...*

Darhaqiqat,Vatan- bu yagonadir.Inson qayerga borsa ham tug'ilib- o'sgan joyini qumsaydi.Unga har qadamda talpinadi,ota- onasini ko'rgisi keladi." Vatanim" haqida yozilgan she'r kuyga solib ijro etilgan.Vatan haqida she'r yozmagan shoir yo'q,roman yozmagan yozuvchi bo'lmasa kerak.Chunki har bir inson shu O'zbekiston atalmish yurtida yashar ekan, uning go'zalligini kuylamagan bo'lmasa kerak.Shoirning istagi- bugungi va kelgusi avlod bu o'tmishdan saboq chiqaversin, ertaga bo'ladigan ming turli hayot sinovlariga tayyor tursin! Muhammad Yusuf 2001-yil 31- iyulda Qoraqalpog'istonning Ellikqa'la tumaniga qilgan safarida yurak xurujidan vafot etdi.Garchi shoir vafot etgan bo'lsa- da, lekin u insonlar yuragida mangu yashaydi, Muhammad Yusuf xalqning yuragidir.Haqiqiy shoirlar hech qachon o'lmaydi.Ular she'rlari asosida olamda yashashadi.Shoir vafotidan keyin shoirning o'z shogirdlari va oilasi,qizlari, turmush o'rtog'i Nazira opalar shoirning adabiy mulkini asrab kelishmoqdalar va davom ettirishmoqda.Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, shoirning ijodi har doim qalblarda qolajak! Shoirning she'rlarini, she'riy dostonlarini hech kim unutmaydi.O'quvchi yoshlar uchun o'zgacha bir taassurot qoldiradi.

*" O'ldi," - desa qaysidir nodon,  
Xato qilar,so'zim begumon.  
Kimdir she'rim o'qigan zamon  
Men dunyoga yana qaytaman. ( Maqsuda Karimova)*





**Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.B.To‘xliyev " Adabiyot o‘qitish metodikasi" Toshkent- 2008.
- 2.Muhammad Yusuf" Saylanma"" Sharq"nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent- 2017- yil 195-bet
- 3.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 6-qism,Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2017,  
194-bet
- 4.Muhammad Yusuf " Xalq bo‘l,elim"Toshkent " O‘zbekiston"2019-yil, 130-bet
- 5.Xurshid Davron" Shahardagi olma daraxti"T-2017,82-bet
- 6.Muhammad Yusuf " Qushoshga qarab oqqan suv"G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, Toshkent-2018, 21- bet
- 7.Muhammad Yusuf " Yolg‘onchi yor"she’rlar, Toshkent-1994,G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,39-bet
- 8.Muhammad Yusuf" Halima enam allalari"she’rlar va dostonlar "Cho‘lpon"nashriyoti, Toshkent-1991, 3-bet
- 9.Muhammad Yusuf "Bulbulga bir gapim bor" she’rlar Toshkent-1987, 35- bet